




**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL  
YANVAR-SENTABR**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, Toshkent viloyatida jami 17419,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





# 2024- yil 1-oktyabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1277

•Bino va inshootlar qurish

361

•Fuqarolik obyektlarini qurish

910

•Ixtisoslashtirilgan  
qilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 87,6 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 50,1 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,5foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,6 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,7 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 87,2 foizni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.10.2024- y.	01.10.2023- y.	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2548</b>	<b>2907</b>	<b>87,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	118	125	94,4
Olmalik	110	134	82,1
Angren	148	169	87,6
Bekobod	113	118	95,8
Ohangaron	85	101	84,2
Chirchiq	270	293	92,2
Yangiyo'l	75	76	98,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	49	60	81,7
Ohangaron	59	69	85,5
Bekobod	79	87	90,8
Bo'stonliq	105	110	95,5
Bo'ka	83	115	72,2
Quyichirchiq	48	65	73,8
Zangiota	197	220	89,5
Yuqori Chirchiq	149	182	81,9
Qibray	268	298	89,6
Parkent	88	98	89,8
Piskent	61	60	101,7
O'rta Chirchiq	119	143	83,2
Chinoz	81	92	88
Yangiyo'l	98	134	73,1
Toshkent	144	158	91,1



# 2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da


**Qibray (10,5)**



**Chirchiq sh. (10,6)**



**Zangiota (7,7)**





# Qurilish ishlari

## 2024- yil yanvar- sentabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>17419,3</b>	<b>2915,0</b>	<b>7406,6</b>	<b>7097,7</b>
<b>shaharlar:</b>				
Nurafshon	501,1	9	448,9	43,2
Olmaliq	1925,6	1542,3	294,8	88,5
Angren	357,5	40,2	252,7	64,6
Bekobod	412,9	81,8	270,7	60,4
Ohangaron	92,7	9,3	37,1	46,3
Chirchiq	1100,1	86,6	950,5	63
Yangiyo'l	294,7	1	236,5	57,2
<b>tumanlar:</b>				
Oqqo'rg'on	251,5	0	165,7	85,8
Ohangaron	249,5	6,3	165,6	77,6
Bekobod	122,3	6,8	67,9	47,6
Bo'stonliq	423,7	120,5	125,6	177,6
Bo'ka	230,8	45,3	83	102,5
Quyi Chirchiq	467,5	2,1	370	95,4
Zangiota	953,9	13,7	626,7	313,5
Yuqori Chirchiq	765,3	105,9	456,7	202,7
Qibray	1163,7	430,2	247,2	486,3
Parkent	426,6	0,9	310	115,7
Piskent	195,2	17,8	91,1	86,3
O'rta Chirchiq	411,6	0	227,3	184,3
Chinoz	210,4	3,3	62	145,1
Yangiyo'l	988,2	27,8	799,5	160,9
Toshkent	892,8	8,7	228,4	655,7
<b>Yashirin iqtisod</b>	<b>4981,7</b>	<b>355,5</b>	<b>888,7</b>	<b>3737,5</b>



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2220,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 117,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko'rsatkich darajasidan 12,9 % punktga ko'payib, 20,7 % ni tashkil etdi.



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 42,5 % ni to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,5 % ni tashkil etgan holda 7406,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

42,5

2024- yil  
Yanvar-  
sentabr

44,7

2023- yil  
Yanvar- sentabr



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Chirchiq shaxri (950,5 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,8 % ), Yangiyo'l tumani ( 799,5 mlrd. so'm yoki 10,8 %) Zangiota tumani (626,7 mlrd so'm yoki 8,5 %) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 40,7 % tashkil etdi yoki 7097,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 120,6 % ni tashkil etdi.

2023 yil  
yanvar-sentabr

**5624,1**  
mlrd so'm


2024- yil  
yanvar -sentabr

**7097,7**  
mlrd so'm

**39,6 %**

**40,7 %**

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **116,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **9412,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **1,2 %** va **98,8 %** ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



**Ma'lumot uchun:** Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70